



TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH MASALALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

**ПРОБЛЕМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И
ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ**

**PROBLEMS OF APPLICATION OF INNOVATIVE AND
DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM
INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE**

**6-7 MAY
2024-YIL**





**MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

TA'LIM TIZIMIDA INNOVATION VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

ПРОБЛЕМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

международная научно – практическая конференция

PROBLEMS OF APPLICATION OF INNOVATIVE AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM

international scientific - practical conference

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandida belgilangan topshiriq ijrosini o‘z vaqtida va samaralari bajarilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug‘i asosida tashkil etilgan **“Ta’lim tizimida innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (6-7 may, 2024-yil)-T.:TDPU, 2024.

Taqrizchilar:

D.A.Zaripova- Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari univerviteti “Axborot ta’lim texnologiyalari” kafedrasini mudiri, dotsent, (PhD)

B.S.Abdullayeva- Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

Muharrirlar:

Sh.A.Abduraxmanova- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Axborot texnologiyalari” kafedrasini mudiri, dotsent, p.f.f.d. (PhD)

L.K.Bagbekova- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Axborot texnologiyalari” kafedrasini v.b.dotsenti p.f.f.d. (PhD)

Z.R.Bakiyeva-Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Axborot texnologiyalari” kafedrasini dotsenti p.f.f.d. (PhD)

E.I.Muratov-Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Axborot texnologiyalari” kafedrasini o‘qituvchisi

Dizayner:

Sh.B.O‘roqova- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Axborot texnologiyalari” kafedrasini katta o‘qituvchisi

To‘plamda joy olgan tezislarda keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar javobgardirlar

Авторы несут ответственность за правильность информации содержащейся в тезисах включенных в сборник

The authors are responsible for the correctness of the information contained in the theses included in the collection

© Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy-texnik kengash yig‘ilishining 2024-yil 17-maydagi 5-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

"YUNONISTONDA YOZUVNING PAYDO BO'LISHI

Toshtemirov A.M.

CHDPU " Umumiy tarix va ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

Ergasheva S.U.

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yunon yozuvining vujudga kelishi, shakllanishi va o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari yunon yozuvi asosida yunon adabiyotining yaralishi va tarixni o'rganishda yozma manbalarning keng tarqalishi uchun asos bo'lganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Alifbo, unli, undosh, qibtiy, stigma, koppa, sampi, qirrador yoziv, kursiv yozuv, monumental yozuv, Iliada, Odissey, pyesa, tragediya, tosh, metal.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Yunoniston hududida odamlar paleolit davridan yashab kelmoqda. Xalkidika yarim orolidan neandertal odamining bosh suyagi chiqqan. Neolit davrida Yunoniston aholisi dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanib, o'troq hayot kechirgan. Yunonistonning jez davri madaniyati shartli ravishda Kritmiken madaniyati yoki Egey madaniyati deb atalgan. Yunon yozuvi - finikiy yozuvidan kelib chiqqan alifboli (harf—tovushli) yozuv hisoblanib, taxminan miloddan avvalgi IX—VIII-asrlarda paydo bo'lgan. Yunon yozuvli qadimiy yodgorliklar miloddan avvalgi VIII—VII-asrlarga mansubligi aniqlangan. Turi va harflar to'plami jihatidan qadimiy frigiya alifboli yozuviga (miloddan avvalgi VIII-VII-asrlar) yaqinroq turadi. Yunon yozuvida, finikiy konsonant (undoshli) alifbosidan farqli ravishda, undoshlarni ifodalovchi harflardan tashqari unilarni ifodalovchi harflar ham paydo bo'ladi. Bu yozuv taraqqiyotidagi yangi bosqich sifatida katta umummadaniy ahamiyatga ega bo'ldi. Alifboli yozuv paydo bo'lgungacha greklar chiziqli bo'g'in yozuvidan foydalanganlar. Alifboli yunon yozuvi 2 tarmoqqa bo'lingan: g'arbiy va sharqiy.

Gʻarbiy yunon yozuvi, oʻz navbatida, ayrim belgilarning yozilishidagi xususiyatlari

bilan ajralib turuvchi bir qancha mahalliy koʻrinishlarga ega boʻladi. Sharqiy Yunon yozuvi klassik Yunon yozuvi va vizantiy yozuvi tarzida rivojlandi. Qibtiy (kopt), got,

slavyankirill, shuningdek, arman, qisman gruzin yozuvlariga asos boʻldi. Gʻarbiy Yunon yozuvi asosida esa etrusk, lotin va qadimiy german runik yozuvlari paydo boʻldi boʻlganligini manbalar asosida tahlil qilib oʻtdik. Klassik umumyunon alifbosi (miloddan avvalgi IV-asrdan) 27 harfdan iborat boʻlib, shu asosdagi matnlar chapdan oʻngga qarab yozilgan. "Stigma", "koppa", "sampi" belgilari faqat sonlarni ifodalash uchun qoʻllangan, keyinchalik alifbo qatoridan chiqarilgan. Yangi yunon (grek) alifbosi 24 harfdan iborat. Yunon yozuvining bir necha turlari, koʻrinishlari boʻlgan: tosh, metall, sopol kabi qattiq jismlarga bitilgan monumental yozuv (qatʼiy kvadrat shaklli, qirrador yozuv; miloddan avvalgi VIII asrdan), unsial yozuv (dumaloqroq shaklli, nolmoqsimon yozuv; miloddan avvalgi. IV-asrdan papirusda, milodiy II asrdan pergamentda), kursiv yozuv (tez yoziladigan, qoʻlyozma shaklidagi yozuv, milodiy III asrdan). XIII asrdan kichik minuskul (kichik harflardan iborat yozuv) barqarorlashib, dastlabki yunon bosma shrifti (XV-asr) uchun asos, andoza boʻladi. Hozirgi yunon bosmacha harflari esa XVII asrda yaratilgan. Qadimgi yunon adabiyotining kelib chiqishi uzoq otmishga borib taqaladi. Yunon adiblari ajoyib afsona, rivoyat, sher, qoshiq, doston, tragediya va komediyalar yaratishgan. Yunon baxshilari esa qadimgi afsona va rivoyatlarni ogzaki tarzda ijro etib avloddan-avlodga yetkazganlar.

«Gerakl», «Didalva Ikar», «Argonavtlar», «Iliada» va «Odissey» kabi afsona, doston va rivoyatlar Yunon adabiyotining eng nodir asarlaridan hisoblanadi. Yunon adabiyotining eng mashhur namoyandalaridan biri Gomer bolib, u miloddan avvalgi VIII asrda, boshqa malumotlarga qaraganda XII asrda yashagan ekan. Gomer «Iliada» va «Odissey» dostonlarining muallifidir. Dostonlarda yunonlarning Kichik Osiyodagi Troya shahriga qilgan yurishlari, qahramonlarning kurashlari va boshlaridan oʻtkazgan sarguzashtlari hikoya qilingan. Yunon adabiyotining yirik

namoyandalaridan biri Gesiod bolib, u miloddan avvalgi VIII asr oxiri – VII asr boshlarida yashagan. Uning «Mehnat va kunlar» poemasi yunon mehnatkashlariga mehr-muhabbat, tekinxor aslzodalarga nafrat ruhida yaratilgan. Gesiod o‘z asarida mehnat ahlini ulug‘lagan. Miloddan avvalgi VI–IV asrlarda Yunonistonda Esxil, Sofokl, Evripid kabi mashhur shoir-dramaturglar ijod etganlar. Ularning har biri o‘lmas qo‘shiq, she‘r va tragediyalar yozib qoldirganlar. Ularning eng mashhuri Esxil bo‘lib, u miloddan avvalgi 525–456-yillarda yashagan. U 90 dan ortiq tragediya yozgan. U «Tragediya otasi» hisoblanadi. Uning eng mashhur tragediyalari «Zanjirband Prometey» va « Forslar» dir. «Zanjirband Prometey» asarida pahlavon Prometeyning xudo Zevs irodasiga qarshi borib, odamlarga qamish poyasida osmondan olov keltirib beradi. Rivoyatga ko‘ra u odamlarga uy-joy qurishni, hayvonlarni qo‘lga o‘rgatishni, kema yasashni, «hisob ilmi» va xat-savodni o‘rgatgan ekan. Bu ishlar Zevsni g‘azablantirib Prometeyni tog‘ qoyasiga zanjirband qilishni buyuradi. Zevs temir tumshuqli qushga Prometeyning jigarini choqib yeyishni buyuradi. Prometey kelajakda kimlar Zevsni hokimiyatdan mahrum qilajagini biladi. Ammo u bu sirni Zevs yuborgan Germesga aytmaydi. Shunda Zevs Prometeyga shunday g‘azab qiladiki, zanjirband Prometey qoya bilan yer qariga tushib ketadi. Esxilning «Forslar» tragediyasi miloddan avvalgi 492–449-yillardagi Yunon-Eron urushlari voqeasiga bag‘ishlangan. Yunonistonning yana bir shoir dramaturgi Sofokldir. U miloddan avvalgi 496–406-yillarda yashab ijod etgan tragik shoirdir. U 120 dan ortiq tragediya yozgan bolib, uning «Shoh Edip» va «Antigona» tragediyalari mashhurdir. Yunon adiblari komediya sohasida ham shuhrat qozonganlar. Yunon komediyasining yirik namoyandalaridan biri Aristofan bo‘lib, u miloddan avvalgi 480–388-yillarda yashab ijod etgan. U «Tinchlik», «Ayollar xalq yiginida» va «Suvoriylar» kabi komik –kulgili pyesalar yaratgan. Yunoniston tarixini o‘rganishda yunon adabiyotining hissasi beqiyos darajada kattadir. Qadimgi Yunonistonda fanning turli sohalari bo‘yicha mashhur olimlar yetishib chiqqanlar. Qadimgi Yunon olimlari Misr, Bobil va Kichik Osiyo xalqlarining bilimlaridan ko‘p bahramand bo‘lganlar. Qadimgi Sharq fani yunon dunyosi ilm- fanining rivojiga barakali ta’sir ko‘rsatdi. Miloddan avvalgi VII–I asrlarda Yunoniston Gomer,

Gesiod, Gerodod, Demokrit, Protagor, Gippokrat, Suqrot, Aflotun va Arastu (Aristotel) kabi ulug' siymolarni yetkazib berdi. Miloddan avvalgi VI–V asrlarda Kichik Osiyoning g'arbiy

sohilidagi Milet shahri ilm-marifat markaziga aylangan. Bu shaharda o'sha zamonning mashhur olimlari, tarixchilari to'plangan edi. Ularning biri miloddan avvalgi 490–424- yillarda Kichik Osiyodagi Balikarios shahrida yashab o'tgan Gerodotdir. U juda bilimli olim bo'lib, miloddan avvalgi 477–455-yillarda Misr, Bobil, Suriya, Kichik Osiyo va Qora dengiz sohillaridagi mamlakatlarga sayohat qilgan. Gerodot «Yunoniston-Eron urushlari tarixi» va ko'p jildli «Tarix» kitobining muallifidir. Gerodotning zamondoshi Fukidid miloddan avvalgi 470–400-yillarda yashab ijod etgan. U Peloponnes urushi ishtirokchisi va u haqida asar yozgan tarixchilardandir. Mashhur yunon qomusiy olimlaridan biri Frakiyaning Abder shahrida tug'ulib ijod etgan Demokritdir. Miloddan avvalgi 460–370-yillarda yashab ijod etgan Demokrit o'sha davrda mavjud bo'lgan hamma fanlar bilan shug'ullangan tengi yo'q olim edi. U tabiatda mavjud narsalarning hammasi zarracha – atomlardan tu zilgan degan dohiyona fikrni ilgari surgan. Atoqli yunon faylasuf-donishmandlaridan biri Suqrot bo'lib u miloddan avvalgi 471-yili Afinada dunyoga kelgan. Rivoyat qilinishicha, u kitob yozmagan, maktablarda dars bermagan. U odam gavjum bo'lgan joylarda o'z shogirdlarini haqiqatni bilishga undagan. Suqrot haqiqatni bilish mumkin emas deb o'ylovchilarga qarama-qarshi, uni bahs-munozara orqali bilish mumkin deb hisoblagan. U odamlarni tenglashtirishga qarshi chiqib, ularni haqiqatni bilganlar va bilmaganlarga ajratgan. U adolatga xilof bo'lgan davlatni boshqarishning hamma shakllarini ya'ni monarxiya, tiraniya, aristokratiya va demokratiyani tanqid qilgan. Uning bu fikrlari Afina quldorlik demokratiyasi namoyandalariga yoqmagan. U demokratiya tuzumining dushmani sifatida sudga berilgan. Sud uni o'lim jazosiga hukm qilgan. Sud hukmiga muvofiq u giyohdan tayyorlangan zahar ichib o'lgan. Sharq dunyosida «muallimi avval» – «birinchi muallim» nomi bilan mashhur va o'z zamonasining dono va faylafusi bolgan olimlardan biri Aristoteldir. Uni Arastu ham deyishadi. U miloddan avvalgi 384-yilda tug'ulib 322-yilda vafot etgan. U keng bilimli olim

bo'lib, mashhur Iskandarning ustoz, juda ko'p asarlar yozgan. Uning «Siyosat», «Metodika» kabi asarlari mashhur. U o'sha davrdagi ilmiy bilimlarni alohida sohalaiga bo'lib chiqqan va ularning har birini botanika, fizika, tarix, siyosat kabi nomlar bilan atagan. U Yer shar shaklida bo'lib, butun koinotning markazidir, Quyosh va yulduzlar Yer atrofida aylanadi, deb hisoblagan. Aristotel o'zi va hamma davrlarning buyuk allomasi bo'lib qolgan. Yunon yozuvi yunon adabiyoti bizga katta tarixiy ma'lumotlarni taqdim etdi desak hech ham xato bo'lmaydi. Yunon tarixchilari, olimlarining qoldirgan ilmiy meroslari bizga nafaqat Yunoniston balki, butun qadimgi dunyo tarixini bilishimizga asos bo'lib xizmat qildi. Bu mavzuga to'xtalib yunon tarixini qisqacha bo'lsada yoritishga harakat qildik, ammo yunon tarixining boy o'tmishi va madaniyatining o'rganilmagan jihatlari qancha. Keyingi ilmiy izlanishlar davomida aynan shu tomonlarini inobatga olgan holda yunon tarixiga atroflicha to'xtalamiz. Yunon yozuvi grek yozuvi finikiy yozuvidan kelib chiqqan alifboli (harf— tovushli) yozuv; taxminan miloddan avvalgi IX-VII-asrlarda paydo bo'lgan. Eng qadimiy yodgorliklari miloddan avvalgi VII-VII-asrlarga mansub. Turi va harflar to'plami jihatidan qadimiy frigiya alifboli yozuviga (miloddan avvalgi VIII-VII-asrlar) yaqinroq turadi. Yunon yozuvida, finikiy konsonant (undoshli) alifbosidan farqli ravishda, undoshlarni ifodalovchi harflardan tashqari unilarni ifodalovchi harflar ham paydo bo'ladi. Bu yozuv taraqqiyotidagi yangi bosqich sifatida katta umummadaniy ahamiyatga ega bo'ldi. Alifboli yozuv paydo bo'lgungacha greklar chiziqli bo'g'in yozuvidan foydalanganlar. Alifboli Yunon yozuvi ikki tarmoqqa bo'lingan: g'arbiy va Sharqiy. G'arbiy Yunon yozuvi, o'z navbatida, ayrim belgilarning yozilishidagi xususiyatlari bilan ajralib turuvchi bir qancha mahalliy ko'rinishlarga ega bo'ladi. Sharqiy Yunon yozuvi klassik Yunon yozuvi va Vizantiya yozuvi tarzida rivojlandi, qibtiy (kopt), got, slavyan-kirill, shuningdek, arman, qisman gruzin yozuvlariga asos bo'ldi.

G'arbiy Yunon yozuvi asosida esa etrusk, lotin va german yozuvlari asosida runik yozuvlari paydo bo'ldi. Klassik alifbosi (miloddan avvalgi IV asrdan) 27 harfdan va imloiborat bo'lib, shu asosdagi matnlar chapdan o'ngga qarab yozilgan. “Stigma”, “Koppa”, “SAMPI” belgilari faqat sonlarni ifodalash uchun qo'llangan,

keyinchalik alifbo qatoridan chiqarilgan. Yangi yunon (grek) alifbosi 24 harfdan iborat. Yunon yozuvining bir necha turlari, ko'rinishlari bo'lgan: tosh, metall, sopol kabi qattiq jismlarga bitilgan monumental yozuv (qat'iy kvadrat shaklli, qirrador yozuv; miloddan avvalgi VII-asrdan), untsial yozuv (dumaloqroq shaklli, nimoqsimon yozuv; miloddan avvalgi IV asrdan papirusda, milodiy II-asrdan pergamentda), kursiv harflari va imlosi shu asosda shakllanib yozuv shakliga kelgan yozish qiyin bo'lgan yozuv (tez yoziladigan, qo'lyozma shaklidagi yozuv, milodiy III-asrdan). XIII-asrdan kichik minuskul, silindr, yoy shakli va boshqa shakllarda ko'zga yaqqol tashlanib turgan asosi (kichik harflardan iborat yozuv) barqarorlashib, dastlabki yunon bosma shrifti (XV-asr) uchun asos, andoza bo'ladi. Hozirgi yunon bosmacha harflari XVII-asrda yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. История Древней Греции / Под ред. В.И. Кузищина. М., 2008.
2. Ражабов Р. Кадимги дунё тарихи. "Фан ва техника нашриёти ". Тошкент,2009.
3. Чеккосова Е.А, Редер Д.Г. Кадимги дунё тарихи. "Укитувчи " нашриёти. Тошкент 1974.
4. Кадимги дунё тарихи. II қисм. Ю.С. Крушқол тахрирт остида"Укитувчи" нашриёти. Тошкент - 1975.
- 5.Хаммарстром, Харалд; Forkel, Robert; Хаспельмат, Мартин, nashr.(2017). "Qadimgi yunoncha". Glottolog 3.0. Jena, Germaniya: Maks Plank nomidagi Insoniyat tarixi fanlari instituti.
6. Nyuton, Brayan E .; Ruijg, Kornelis Judd (2018 yil 13-aprel). "Yunon tili". Britannica entsiklopediyasi.
7. Rojer D. Vudard (2008), "Yunon shevalari", Yevropaning qadimgi tillari, tahrir. R. D. Vudard, Kembrij: Kembrij universiteti matbuoti.